

## TO'RA SULAYMON "SUYANMA" SHE'RINING LINGVOMADANIY TAHLILI

**Misliddinova Malika Xolbayevna,**  
Guliston davlat pedagogika instituti  
"O'zbek tili va tillarni o'qitish" kafedrasida dotsenti

**Asqaraliyeva Malikabonu O'tkir qizi,**  
GulDPI 3-kurs talabasi  
Gmail: [malikabonuasqaraliyeva04@gmail.com](mailto:malikabonuasqaraliyeva04@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada To'ra Sulaymonning "Suyanma" she'ri grammatik, ilmiy etimologik tahlilga tortilgan bo'lib, shoirning so'z qo'llashdagi uslubiy mahorati ochib beriladi. She'rdagi o'zlashgan so'zlar.

**Kalit so'zlar:** To'ra Sulaymon, "Suyanma" she'ri, girdibod, badkorlik, bequroq, Buroq, hubob, mustajob, mohitob, shohsuvor, magar, bo'rk.

**Аннотация.** В данной статье стихотворение Тора Сулеймана «Суянма» анализируется с точки зрения грамматики и научной этимологии, а также раскрывается мастерство поэта в использовании слов. Рассматриваются сокращенные слова в стихотворении.

**Ключевые слова:** Тора Сулейман, песня «Суянма», girdibod, badkor, bekurok, burok, khabab, mustadjab, mokhitob, shoxsuvor, magar, burk.

**Annotation.** In this article, Tora Sulayman's poem "Suyanma" is analyzed in terms of grammar and scientific etymology, and the poet's skill in using words is revealed. Diminished words in the poem.

**Key words:** Tora Sulayman, "Suyanma" song, girdibod, badkor, bekurok, burok, khabab, mustadjab, mokhitob, shoxsuvor, magar, burk.

**Kirish.** "To'ra Sulaymon o'zbek adabiyoti va ma'naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan zabardast shoir, keng hayot tajribasiga ega ma'rifatparvar ziyoli edi. Uning adabiy va ilmiy merosi bugungi kunda yurtimiz yoshlari uchun muhim ma'naviy boylikdir",—deydi professor Ravshanbek Mahmudov.(1.1-bet). To'ra Sulaymon ijodi o'zining sof xalqona ruhdagi lirik she'rlarining musiqiyliigi, o'ynoqiligi, chuqur mazmunga egaligi hamda dilga yaqinligi bilan boshqa ijodkorlar she'rlaridan ajralib turadi. Uning she'rlaridagi joziba va o'ziga xos betakrorlik boshqa shoirlarda uchramaydi. U asosan xalq og'zaki ijodi uslubida, xalqning dardini kuylab, xalqona yozadi. To'ra Sulaymonning nafaqat she'rlari, balki dostonlari, qissalari ham o'zbekning milliy g'ururini tyuksaltirishga va uni asrab avaylashga xizmat qilgan asarlar sirasiga kiradi. Shuningdek, "Suyanma" she'rida vatanga bo'lgan muhabbatni, unga sadoqat bilan xizmat qilishni va o'zga yurt hech qachon o'z tug'ilib o'sgan yurtningdek bo'la olmasligini qayta va qayta uqdiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** To'ra Sulaymon ijodi yuzasidan bir qancha tadqiqot ish olib borilgan. "To'ra Sulaymon she'riyatida lingvomadaniy birliklarning uslubiy qo'llanilishi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi shular jumlasidandir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** To'ra Sulaymonning "Suyanma" she'ri juda ham murakkab va izchil tarzda yozilgan. Uning har bitta to'rtligida juda ham chuqur ma'no aks etgan. Masalan, bu she'rning birinchi to'rtligi:

Toqqa suyansang suyan, o‘zga taxtga suyanma -  
O‘z komiga tortadir girdibodga suyanma.  
Shamolday tez kelgan baxt-saodatga suyanma,  
Qalqib turgan omonat saltanatga suyanma (2.9-bet)

Birinchi misrada toqqa suyangan (chunki, tog‘ tarafkashlikni bilmaydi, taxt esa kim uchundir qudrat, zo‘ravonlik, hukm o‘tkazish vositasi) lekin, o‘zganing taxtiga suyanma, chunki o‘zganiki hech qachon o‘zingnikiday bo‘lmaydi, degan. O‘z komiga tortadigan bo‘ronlarga suyanma (bo‘ronning ishi vayronlik keltirishdir), ya‘ni yaxshi gapirib, sizning oldingizda yuradigan insonlarga ishonmagin demoqchi. Keying qatorida esa tez kelib ketadigan, bir zumlik quvonch baxtga ham suyanma (“tez kelgan, tez ketadi” iborasi bor). Qalqib turgan, ya‘ni mustahkam bo‘lmagan imoratlarga ham suyanma (omonat bino tez qulaydi) degan ma‘nolarni uqamiz. Bu misralarning mazmuni xalq donoligini eslatadi, go‘yo ajdodlar nasihatini tinglayotgandek bo‘lamiz.

### **Tahlil va natijalar.**

Qanoatli-qanotli, suyuqlik keltirar xorlik,  
O‘z qadriga yetmaslik aslida dilozorlik.  
Yo‘ldoshing nojins bo‘lsa—borliq ishing badkorlik.  
O‘zi to‘ysa ham ko‘zi to‘ymas zotga suyanma(3.9-bet).

To‘rtlikning birinchi misrasini tahlil qiladigan bo‘lsak: qanoatli (boriga shukur qiladigan inson), suyuqlik (odamning beqarorligi), ya‘ni bunday xulq insonni bir kun kelib xor qiladi, o‘zgalarga ham zarari tegadi. Ikkinchi qatorida inson o‘z qadrini bilmasa, bu faqat o‘ziga emas, boshqalarga, balki butun insoniyatga zarar keltirishi ta‘kidlanadi. Bunday insonlar boshqa insonlarning ham dilini og‘ritadi. Uchinchi qatorida esa “Yo‘ldoshing nojins bo‘lsa” iborasiga alohida to‘xtalib o‘tsak: yo‘ldosh so‘zining ma‘nosi hayot yo‘lida birga bo‘ladigan inson tushuniladi. “Nojins” so‘zi esa, inson jinsidan emas, ya‘ni nomunosib, “yomon fe‘lli” degan ma‘nolarni ham bildiradi. Bu iboraning ma‘nosi: Agar yoningdagi inson nomunosib, yomon xulqli bo‘lsa,... unga suyanish joiz emas, balki undan uzoq bo‘lgan ma‘qul degan ma‘no anglashiladi. Bu ibora qadimdan adabiyotlarda, hikmatli so‘zlarda, she‘riyatda timsol axloqiy sifatining pastligini ifodalash uchun ishlatilgan. To‘rtlikning uchinchi qatorida Agar inson noto‘g‘ri tarbiyalangan odam bilan birga bo‘lsa, uning barcha ishlari ham yomon tomonga ketadi degan ma‘noni bildiradi. Oxirgi jumlasida esa ko‘zi to‘ymas zot iborasi ishlatilgan bunga ham alohida e‘tibor berishimiz kerak. Chunki zot so‘zi ulug‘ kishilarga yoki Allohga ishlatiladigan so‘z hisoblanadi. Nega aynan to‘ymas so‘zi qo‘llanilgan? Bu so‘z aslida insonga nisbatan ishlatiladi, ya‘ni inson hech qachon boylikka, mansabga to‘ymaydi, boriga shukur qilmaydi. Azaldan “odam ko‘zini tuproq to‘ldiradi” iborasi ochko‘z, xasis, yeb to‘ymas kimsalarga nisbatan qo‘llangan.

Niyating mudom xolis, qalbing bequroq bo'lsin,  
Qilgan ishing xayrli, minganing Buroq bo'lsin,  
So'nggi yotar joying ham yomondin yiroq bo'lsin,  
Hargiz ta'na, tazyiqli himoyatga suyanma (4.9-bet).

Insonning niyati doimo pok, samimiy bo'lishi, u inson nomiga munosib bo'lmog'i kerak. "Qalbing bequroq"- ya'ni yuragingda g'ubor, hasad, yomonlik bo'lmasin degan ma'noni bildiradi. Ikkinchi qatorida: Har bir qilgan ishing ya'ni amaling foydali, savobli bo'lsin. Ushbu qatorda yana Buroq so'zi ham mavjud. Biz bunga alohida e'tibor berishimiz kerak. Buroq so'zi bu "jonzot", "barq"- yashin degan ma'noni bildiradi, ya'ni Buroq- arabcha so'z bo'lib, islom dunyosida juda tez chopadigan, uchuvchi qanotli maxluqning nomi hisoblanadi. Qur'oni Karimda aytilishicha, Muhammad (s.a.v) Buroqqa minib Makka shahridan Merojga "tungi sayohat"da ketgan. Buroq boshqa payg'ambarlarga ham xizmat qilgan, deyishadi.(5.1-bet) Bu qatorda yozuvchi aynan bu so'zning qaysi ma'nosini aytyabdi? Keyingi qatorda hayotingning oxiri ham yomonlikdan uzoq, tinch va pok holda o'tsin, degan fikrlarni bildiradi. To'rtlikning oxirgi jumlasida hech qachon kamsitish yoki majburlash orqali berilgan "himoya" ga suyanma degan fikrlarni bildiradi.

Borar manziling olis: yo'llaringda sarob bor,  
Yetti vodiya yetmay turib qancha hubob bor,  
Arzing mustajob bo'lsa, unda bir mohitob bor...

Shohsuvor bo'lsang magar yobi otga suyanma (6.9-bet).

Qatorma qator tahlil qilsak, maqsadingiz katta, ya'ni manzil uzoqligi, hamda yo'llaringda sarob- yo'lg'on umidlar, aldovlar uchraydi, bo'sh narsalar, lekin bu insonni chalg'ituvchi narsalar hisoblanadi. Ikkinchi qatorda, Yetti vodiya tushunchasiga alohida e'tibor berish kerak, uning tub ma'nosiga e'tibor bersak buyuk bobomiz Alisher Navoiyga borib taqaladi. Chunki, bobomizning "Lison ut tayr" dostonida huddi mana shu yettilik to'liq yoritilgan. Hazrat Navoiy "Lison ut-tayr" dostoni orqali turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon etib, tasavvufning murakkab g'oyalarini keng ommaga obrazli va ta'sirchan taqdim etgan. Asarda har bir qahramon – qushlarning ramziy xarakteri va ularning Simurg'ni izlash yo'lidagi sayohati insonning ma'naviy kamolotga intilish jarayoni ifodalanadi.(7.2-bet) Keyingi jumlada esa, agar duoying ijobat bo'lsa, buning ortida bir hikmat (mohitob- oydek yorug'lik) bor. Keyingi jumlada magar (agar) fe'lning shart maylini hosil qiluvchi so'z mavjud bo'lib, fors tilidan o'zlashgan - *mi* so'roq yuklamasidir. She'r tarkibidagi *bad* so'zi (badkorlik, bad- yomon, kor- ish), *be-* affiksining (bequroq) qo'llanilishi so'z ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi unsurlardir. Shohsuvor bo'lmoq uchun shohona otsang magar yobi (nasli past ot) otga suyanma Agar sen aslida kuchli, qadrli inson bo'lsang, arzimas narsalarga suyanma degan fikrni uqishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu she'rning oxirgi jumllarini xulosa o'rnida keltirsak bo'ladi.

Tiniq kunlaring qani? Beg'ubor kulging qani?

Pokiza tuproq, tog'ing, boshdagi bo'rking qani?

O'z izming, ixtiyoring, e'tibor, erking qani?

Rizqi-ro'zingga sherik ochofatga suyanma,

Mozori butkul boshqa yetti yotga suyanma (8.9-bet).

Biz bu oxirgi bandlarini o'qir ekanmiz she'rda darajalanish borligini his qilamiz. Ya'ni darajalanish she'rning birinchi to'rtligidan boshlab oxirgi jumllariga qadar yuqorilab, ko'tarilib boraveradi. Bu bilan she'rning oxirgi jumllari juda ham ta'sirchan, achchiqroq va ogohlantiruvchi ruhda yangraydi.

Shoir insondan so'rayapti: sening beg'ubor, sof, baxtli kunlaring qayerda? Oldingi pok va samimiy kulgularingni yo'qotib qo'ymadingmi? — Bu yerda vatanga, ildizga, milliy qadriyatlarga ishora bor. “Bo'rk” — or-nomus, milliylik ramzi. Ya'ni sen o'zligingni, asl qadriyatlaringni yo'qotmadingmi degan savol qo'yilmoqda. Shoir: sen o'zingni boshqara olyapsanmi yoki bularni yo'qotdingmi, deb o'ylashga undaydi. “Ochofat” — haddan ortiq ochko'z, tamagir inson. Ya'ni rizqingni boshqalarga (ayniqsa ochko'zlarga) bog'lab qo'yma, ularga tayanma. “Yetti yot” — begona, ishonchsiz odamlar. Ya'ni oxirgi damlarda (taqdiring, hayoting natijasi) senga aloqasi yo'q, begona odamlarga tayanib qolma. O'z yo'lingni o'zing top. Bu she'r insonni o'zligini yo'qotmaslikka, mustaqil bo'lishga, milliy va ma'naviy qadriyatlarni asrash, doimo insonlarga yaxshilik qilishga, biron maqsad ila yo'lga chiqqan inson oddiy sinovlarga yengilmasligi haqida hushyorlikka chaqiradi. Ayniqsa, begona va ishonchsiz odamlarga, ochko'zlarga tayanishdan ogohlantiradi.

### She'riy matn uchun lug'at

Kom – tanglay, og'iz bo'shlig'i. Maqsad, murod, shodlik, tilak

Girdibod – to'zon, kuchli shamol, quyun, uyurma

Nojins – jinsi noma'lum, yaramas, yomon, pastkash, razil, tuban inson

Badkorlik – yomon, qabih harakatlar qiluvchi, yaramas odam

Buroq – yarqiroq, chaqmoq, payg'ambarlarni Me'rojga olib chiqqan ot

Sarob – xayoliy, soxta tasvir, (optic hodisa)

Hubob – ko'prik, suv yuzidagi pufakcha

Mustajob – talabi qabul etilgan

Mohitob – oydek go'zal

Shohsuvor – mohir chavandoz

yobi ot – nasli, zoti past ot

bo'rk – oshlangan qorakul teridan tikilgan silindrsimon bosh kiyim

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [https://uza.uz/oz/posts/tora-sulaymon-zamondoshlari-xotirasida-kitobi-taqdimoti\\_714344?ysclid=mn61j60h1j650344835](https://uza.uz/oz/posts/tora-sulaymon-zamondoshlari-xotirasida-kitobi-taqdimoti_714344?ysclid=mn61j60h1j650344835)
2. To'ra Sulaymon "Sayhon"( she'rlar, dostonlar) 2003, 9-bet.
3. To'ra Sulaymon "Sayhon"( she'rlar, dostonlar) 2003, 9-bet.
4. To'ra Sulaymon "Sayhon"( she'rlar, dostonlar) 2003, 9-bet.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Buroq>
6. To'ra Sulaymon "Sayhon"( she'rlar, dostonlar) 2003, 9-bet.
7. Hamrayeva Nargiza Hasan qizi .Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi,Boysoatov Muzaffar Bo'ri o'g'li Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi. "Lison ut- tayr" dostonidagi yetti vodiy tavsifi. *NEW RENAISSANCE international scientific journal*. 2025, 2-bet.
8. To'ra Sulaymon "Sayhon"( she'rlar, dostonlar) 2003, 9-bet.

